

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**XUJANOVA MUNIRA FAYZULLAYEVNA**

**O‘ZBEKISTONDA BOLALAR UYLARINING SHAKLLANISHI**  
**VA FAOLIYATI (1925-1991 yy.)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2023**

**Falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD)**

**Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation**

**Xujanova Munira Fayzullayevna**

О‘zbekistonda bolalar uylarining shakllanishi va faoliyati (1925-1991 yy.)..... 5

**Хужанова Мунира Файзуллаевна**

Формирование и деятельность детских домов в Узбекистане (1925-1991 гг.).... 25

**Khujanova Munira Fayzullayevna**

Formation and activity of orphan houses in Uzbekistan (1925-1991) ..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of publications ..... 53

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**XUJANOVA MUNIRA FAYZULLAYEVNA**

**O‘ZBEKISTONDA BOLALAR UYLARINING SHAKLLANISHI**  
**VA FAOLIYATI (1925-1991 yy.)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Tar780 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.qarshidu.uz](http://www.qarshidu.uz)) hamda "ZiyoNET" axborot-ta'lim portali ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Shadmanova Sanavar Bazarbayevna**

tarix fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Ergasheva Yulduz Alimovna**

tarix fanlari doktori, professor

**Pasilov Baxodir Abdullayevich**

tarix fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2021. Tar.70.05-raqamli Ilmiy Kengashning 2023-yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: [qarshidu@umail.uz](mailto:qarshidu@umail.uz)). Qarshi davlat universiteti.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: [qarshidu@umail.uz](mailto:qarshidu@umail.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2023-yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**B.J.Eshov**

Ilmiy darajalarni beruvchi

Ilmiy kengash raisi,

t.f.d., professor

**N.N.Rajabova**

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash ilmiy kotibi,

t.f.n., dotsent

**Yu.A.Ergasheva**

Ilmiy darajalarni beruvchi

ilmiy kengash qoshidagi

Ilmiy seminar raisi,

t.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Hozirgi globallashtan sharoit har bir davlat va jamiyatning asosiy muammosi bo'lgan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish, ularning barkamol avlod sifatida shakllanishi hamda ijtimoiy moslashuvini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratishni taqozo qilmoqda. Jahon tajribasida bugungi kunda bolalar uylari soni va kontingentini imkon qadar kamaytirish, yetimlik oqibatlarini bilan kurashish emas, balki uning oldini olish, himoyaga muhtoj oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash hamda inklyuziv (uyg'unlashgan) rivojlanishga ko'maklashish kabi loyihalarga ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

Dunyo mamlakatlarida yetim bolalar va ota-onasi qarovidan hamda oila muhitidan mahrum bo'lgan bolalar uchun maxsus davlat internati tamoyilidagi ta'lim tarbiya muassasalari mavjud bo'lib, ularning faoliyati davlat nazoratiga olingan. Ularning ijtimoiy-siyosiy mavqei mustahkamlash masalasiga, ayniqsa, ular hayotida nodavlat notijorat tashkilotlarining o'rni va ularni bozor iqtisodiyotining o'zgaruvchan talablariga tez moslashishi, bolalar uylari ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan ham, ta'lim-tarbiya tizimining yo'nalish va tamoyillari jihatidan ham, xo'jaligining ta'minoti jihatidan ham, tibbiy xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha ham davlat tomonidan to'liq ta'minlanadi. Qolaversa, ularning barcha huquqlari maxsus qonunlar orqali kafolatlangan. Bolalar uylarini tashkil qilish, mavjudlarini qayta tashkil etish yoki tugatish, ularning mustaqil yuridik shaxs sifatida tan olinishi, yetimlarga mehr-muruvvat, insonparvarlikning alohida o'rni masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilmoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, g'amxo'rlik qilish ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bolalar uylarining faoliyatlari ham qaytadan tashkil etilib, ularning barchasi "Mehribonlik uyi" deb nomlandi. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Har bir go'dak bu yorug' dunyoga kelar ekan, unga hamma ota-onasi bag'rida yayrab o'ssin, baxtli-saodatli bo'lsin, deb tilak bildiradi. Lekin taqdir taqozosi bilan ularning ayrimlari ota-ona mehridan benasib qoladi. Bunday holatda bu norasida bolalarning aslo aybi yo'q ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz, albatta..."<sup>1</sup>. Shuning uchun ham tadqiqotchilar tomonidan bolalar uylari tarixini o'rganish, uning jamiyat ijtimoiy taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan jihatlari kengroq yoritib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi O'RQ-139-son "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-fevral PQ-4185-son "Yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo'shimcha

---

<sup>1</sup><https://xs.uz/uzkr/post/mehribonlik-ujlaridagi-talim-tarbiya-ishlari-ham-mutlaqo-qoniqarsiz-prezident> (murojaat qilingan sana/10.08.2022-yil)

chora-tadbirlar to‘g‘risida’gi, 2021-yil 9-avgust PQ-5215-son “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oilaviy bolalar uylari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash” haqidagi 2007-yil 31-iyuldagi 158-son, hamda “Bolalar uylari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash” haqidagi 2012-yil 13-iyundagi 171-son, shuningdek, 2022-yil 17-yanvardagi “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “mehr daftari” tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi 26-son qarori hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbekistonda bolalar uylarining shakllanishi va faoliyatiga oid tadqiqotlarni uch guruhga ajratish mumkin:

1. Sovet hokimiyati yillarida yaratilgan ishlar.
2. Mustaqillik yillarida chop etilgan kitob va maqolalar.
3. Xorijiy tadqiqotlar.

Ilmiy adabiyotlarning birinchi guruhiga sovet davri tadqiqotchilari V.Belyakov, N.A.Litkens, M.S.Zinich, N.I.Alpatov, A.M.Nechayevaning nashr qilingan ilmiy maqolalari va kitoblarini kiritish mumkin<sup>2</sup>. Shuningdek, sovet davrida S.Turdiyev, A.Voskoboynikov, V.I.Yefimov, H.Sh.Inoyatov, K.Fazilxodjayev, G.Maryanovskiy kabi bir qancha olimlar tomonidan Bolalar uylariga oid maxsus nashrlar chop etilgan<sup>3</sup>. Ushbu ilmiy maqola va adabiyotlarda sovet hokimiyati yillarida ittifoqda, xususan, O‘zbekistonda bolalar uylarining tashkil etilishi, ularda yaratilgan shart-sharoitlar, partiya tomonidan yetim bolalarga qilingan munosabatlar, ularni kommunistik mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash jihatlariga ko‘proq urg‘u berilgan.

Ikkinchi guruh adabiyotlarga mustaqillik yillarida O‘zbekistonda Bolalar uylari tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotlar, ilmiy maqola va kitoblarni kiritish mumkin.

---

<sup>2</sup>Беляков В. Забота о детях в годы войны / В.Беляков // Воспитание школьников. 1987; Литкенс Н.А. Воспитание культурного поведения в дошкольном детском учреждении. – М.: Учпедгиз, 1951; Зинич М.С. Всенародная помощь детям в период Великой Отечественной войны / М.С.Зинич // Советская педагогика. 1985; Алпатов Н.И. Детские дома Узбекистана в период Великой Отечественной войны / Н.И.Алпатов // Советская педагогика. 1943; Нечаева А.М. Правовая охрана детства в СССР / А.М.Нечаева. – М.: Наука, 1987., Нечаева А.М. Лишних детей не бывает / А.М.Нечаева // Семья и школа. 1991.

<sup>3</sup> Турдиев С. Улуғ Ватан уруши йилларида Ўзбекистон меҳнаткашларининг кўчириб келтирилган болаларга ғамхўрлиги. – Тошкент: Фан, 1987; Воскобойников А., Яковлев М.В. Организаторская и идеологическая работа Коммунистической партии Узбекистана в годы Великой Отечественной войны. – Ташкент, 1966; Ефимов В.И. Патриотические подвиги труда Самаркандской области в годы Великой Отечественной войны. – Самарканд, 1962; Иноятов Х. Ш. Галабага кўшилган хисса. – Тошкент, 1975; Фазылходжаев К. Детей принимал Узбекистан. – Ташкент: Ўзбекистон, 1991; Марьяновский Г. Минг бир тақдир. 1-2 қисм // Шарк юлдузи. – Тошкент, 1981.

Ushbu yo‘nalishda tarixchi olimlardan A.N.Rasulov, S.B.Shadmanova, O‘.Asqarova, D.M.Inoyatova, N.Egamberdiyeva, G.Sh.Saidova, A.M.Egamberdiyeva, M.R.Zezina kabilarning kitob va maqolalari muhim hisoblanadi<sup>4</sup>. Mazkur ilmiy maqola va kitoblarda Ikkinchi jahon urushi davrida O‘zbekistonga bolalarni va bolalar uylarini evakuatsiya qilish masalasi, bu borada amalga oshirilgan ishlarning murakkabligi, uning qiyinchiliklari va mavjud bo‘lgan muammolarni yechish, urushning qiyin sharoitida o‘zbek xalqining bag‘rikengligi haqida xolisona fikrlarni uchratishimiz mumkin.

Ilmiy adabiyotlarning uchinchi guruhiga xorijda yozilgan tadqiqotlar kiradi. Ushbu guruhga kiruvchi adabiyotlar sirasiga E.Erikson, K.Yu.Valentin, Sh.Oqshoy, S.Darvesho‘g‘li, J.Boulbey, G.Byorns, E.Bouldinning ilmiy tadqiqot ishlarini kiritish mumkin<sup>5</sup>. Ushbu xorijiy tadqiqotlarda Bolalar uylarining shakllanish tarixi, sovet hokimiyati yillarida MDH respubliklaridagi Bolalar uylarining ahvoli, ota-onasiz yetim bolalarni jamiyatga adaptatsiya qilish, bu borada xalqaro va davlatlar miqyosida amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilingan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi.** Ilmiy ish mavzusi Jizzax davlat pedagogika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlar rejasi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** 1925-1991-yillarda O‘zbekistonda Bolalar uylarining shakllanishi va ularning faoliyati tarixini yoritib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

O‘zbekistonda Bolalar uylari shakllanishi va uning o‘ziga xos jihatlari hamda nazariy asoslarini tahlil qilish;

Bolalar uylarini boshqaruv tizimi bilan bog‘liq amaliy jarayonlarning asoslarini ochib berish;

Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistondagi Bolalar uylarining ko‘payib borish dinamikasini tadqiq qilish;

---

<sup>4</sup> Rasulov A.N. Туркестон халқи бағрикенглиги (XX аср 20-йиллари бошларида Россиядан эвакуация қилинган болалар мисолида). – Тошкент: Янги нашр, 2011; Шадманова С., Хужанова М. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистонга эвакуация қилинган болалар тақдири // Иккинчи жаҳон уруши: халқ жасорати ва тарих сабоқлари. Халқаро илмий-амалий онлайн конференция материаллари. – Қарши, 2020; Асқарова Ў. Мехрибонлик уйлари тарбияланувчиларини ижтимоий ҳаётга тайёрлаш. – Тошкент: Фан, 2010; Иноятова Д.М. Помощь Узбекистана эвакуированным детям в годы войны (1941-1945 гг.) // Материалы VIII Международной научно-практической конференции. – Алматы, 2017; Эгамбердиева Н. Ижтимоий педагогика. – Тошкент: Миллий кутубхона нашриёти, 2009; Саидова Г.Ш. Жизнь эвакуированных детей в Узбекистане в годы Второй мировой войны // Молодой ученый. 2013; Эгамбердиева А.М. Деятельность детских домов в годы советской власти // Молодой ученый. – 2016; Зезина М.Р. Система социальной защиты детей-сирот в СССР / М.Р.Зезина // Педагогика. 2000; Зезина М.Р. Без семьи: сироты послевоенной поры / М.Р.Зезина // Родина. 2001.

<sup>5</sup> Эриксон Э. Детство и общество: Пер. с англ. 2-е изд., перераб. и доп. – СПб.: ООО «Речь», 2001; Valentine C.W. The normal child and some of his abnormalities: A general introduction to psychology of childhood Text. / C.W.Valentine // Harmonds worth: Penguin Books. 1960; Akçay Ş. İstanbul üniversitesi çocuk ihmali ve istismari konusunda bilgi, deneyim ve davranışlarını belirleme araştırması. – İstanbul, 2008; Dervişoğlu S. Çocuk istismari ve ihmali açısından sokakta çalışan çocuklar ve Avrupa birliği uygulamaları. – İstanbul, 2012; Bowlby J. Maternal care and mental health. Geneva / J.Bowlby: World Health Organization, 1951; Barnes G. Family violence and child abuse. In: Good Enough Parenting. CCETSW Study № 1, 1978; Boulding E. Children’s Rights and the Wheel of Life. New Jersey: Transaction Book, 1979.

Bolalar uylarining moddiy ta'minoti, tarbiyalanuvchilarga yaratilgan sharoitlarni o'rganish va tahlil qilish;

Bolalar uyi tarbiyalanuvchilarining salomatligi, sanitariya-gigiyena masalalari va bu borada amalga oshirilgan ishlarni tahlil etish;

Bolalar uylari uchun kadrlar tayyorlash masalasi, tarbiyalanuvchilar bilan olib borilgan tarbiyaviy pedagogik ishlar samaradorligi qay daraja bo'lganligini tadqiq qilish;

Bolalar uylarida tarbiyasi og'ir bolalar bilan olib borilgan ishlar, ulardan ko'zlangan maqsad tarixini ochib berish;

tadqiqot natijalari asosida yakuniy xulosalar chiqarish hamda ilmiy va amaliy ahamiyatga molik bo'lgan tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'ektini** 1925-1991-yillarda O'zbekiston hududida Bolalar uylarining tashkil etilishi hamda ularning faoliyati tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmeti** O'zbekistonda bolalar uylarining shakllanishi, ularning faoliyati, boshqaruv tizimi, moddiy-texnik sharoiti, o'quv-tarbiya ishlari hamda kadrlar tayyorlash tizimi hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tarixiylik tamoyili va tizimi, tahlil, qiyosiy-xronologik, ketma-ketlik, xolislik kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

O'zbekistonda dastlabki bolalar uylarining tashkil etilishi o'lkada bolsheviklar hokimiyati o'rnatilgandan so'ng amalga oshirilganligi, muassasalar uchun boylarning hovlilari ajratilib, binolar yetim bolalar uchun umumiy tartibda bo'lib, unda qiz va o'g'il bolalar birgalikda tarbiyalanganliklari masalasi asoslab berilgan;

Bolalar uylarining miqdori va ularda tarbiyalangan bolalar soni yillar kesimida o'zgarib turganligi aniqlanib, bu holat o'sha davrda yuz bergan siyosiy va iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liqligi ko'rsatib berilgan;

Bolalar muassasalarida ta'lim va tarbiya ishlari ikki bosqichda namoyon bo'lgan bo'lib, birinchi bosqichda (1920-1940-yillarda) – ta'lim va tarbiya ishlari birgalikda bolalar muassasalarida olib borilganligi hamda ikkinchi bosqichda (1950-1980-yillarda) bolalar ta'lim olish uchun maktablarga borganligi ochib berilgan;

Bolalar uylariga davlat byudjeti hisobidan turli davrlarda turlicha mablag'lar ajratilganligi hamda dastlabki davrlarda aholining o'zi muassasalarga moddiy yordam berganligi va keyinchalik korxonalar ularni otaliqqa olishi natijasida bolalar muassasasi moddiy ta'minoti yillar kesimida o'zgarib turganligi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

arxiv xujjatlari, mahalliy davriy matbuotda chop etilgan maqolalar va mavzuga oid ilmiy adabiyotlar asosida O'zbekistonda dastlabki bolalar uylarining tashkil etilishi, keyinchalik ularning ko'payib borishiga mavjud siyosiy tuzumning o'zgarishi va hokimiyat tizimidagi siyosiy tozalash, boy dehqon xo'jaliklariga qarshi kurash, xujum harakati, qatag'onlik siyosati, Ikkinchi jahon urushi sababli ota-onasiz yetim bolalarni boqish, nazoratda saqlash asosiy vazifa bo'lganligi aniqlangan;

ota-onasiz yetim bolalarga davlat darajasida e'tibor qaratilib, ularni sovet hokimiyatiga sodiqliq ruhida tarbiyalashga katta ahamiyat berilib, Ikkinchi jahon urushidan keyin respublikadagi mavjud bolalar uylari yosh xususiyati, jismoniy imkoniyatlariga ko'ra toifalarga ajratilganligi, muassasalarning moddiy-xo'jalik tizimidagi yutuq va kamchiliklarning o'ziga xos jihatlari ko'rsatilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Dissertatsiyada O'zbekiston Milliy arxivi, viloyatlar Markaziy arxivlaridagi bir qator fondlarda jamlangan arxiv manbalari, xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar, turli gazeta va jurnallarda chop qilingan mavzuga tegishli tarixiy yo'nalishdagi maqolalar, Bolalar uylari va ularning tarbiyalanuvchilari xotira ma'lumotlariga asoslanganligi, xulosa, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekistonda bolalar uylarining tashkil topishi, ularning o'ziga xos shakllanish tarixi, tarbiya muassasasi sifatida jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal etishdagi tutgan o'rni haqida ilmiy-nazariy bilimlarni yanada boyitish, kengaytirish, ushbu masalaga doir ilmiy xulosalarni amaliyotga joriy etishga asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston tarixining mavzu xronologiyasiga oid qismini yangi ma'lumotlar bilan boyitishda, shuningdek, jamlangan dalil va ma'lumotlardan oliy o'quv yurtlari, mavjud "Mehribonlik uylari" uchun o'quv adabiyotlari yaratishda, mavzuga doir maxsus kurslar o'qishda, yoshlarni ota-onaga hurmat, oila qadri ruhida tarbiyalash, xalqimizga xos ilg'or an'analar, yetimlarga g'amxo'rlik qilish kabi fazilatlarni targ'ib etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekistonda bolalar uylarining shakllanishi va faoliyati dissertatsiya ishini tadqiq qilish natijasida olingan ilmiy yangiliklar, xulosalar va ishlab chiqilgan takliflar asosida:

O'zbekistonda Bolalar uylarining shakllanishi va taraqqiyoti, boshqaruv tizimi, moddiy-texnik sharoiti, o'quv-tarbiya ishlari, kadrlar tayyorlash tizimidagi muammolarga oid tadqiqotlar tahlili bo'yicha ilmiy xulosalar O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi – O'zbekiston tarixi telekanalining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy mavzudagi "Mavzu", "Moziydan sado", "Ko'hna dunyo" kabi ko'rsatuvlarining ssenariysini tuzish va tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi – O'zbekiston tarixi teleradiokanali davlat unitar korxonasi 2022-yil 17-iyundagi 48-764-4244-son ma'lumotnomasi). Ko'rsatuvlarni tayyorlash davomida dissertatsiyada keltirilgan asosiy nazariy, mulohaza, taklif va tavsiyalardan foydalanish tomoshabinlarning O'zbekistonda Bolalar uylarining shakllanish jaryonlari haqida yanada batafsilroq ma'lumot olishlariga xizmat qilgan;

Ikkinchi jahon urushi yillarida Sharqiy Yevropadan evakuatsiya qilingan Bolalar uylari milliy jihatlarni hisobga olgan holda alohida binolarda joylashtirilganligi, urushdan keyin O'zbekistonga evakuatsiya qilib keltirilgan polyak bolalarining o'z yurtlariga qaytarilishi, 1950-yillarning oxirida O'zbekistonda Bolalar uylari

sonining kamayib borishi, bunga ta'sir etgan asosiy omillar kabi ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligiga qarashli "Shon-sharaf" davlat muzeyi ekspozitsiyasini yangi ma'lumotlar bilan boyitishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi huzuridagi "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasining 2022-yil 30-noyabrdagi 42/728-son ma'lumotnomasi). Tadqiqot ishining ilmiy yangiliklari, amaliy natijalaridan muzey ekspozitsiyalarida foydalanish, tashrif buyuruvchlarining O'zbekiston xalqining Ikkinchi jahon urushi yillaridagi front orti mashaqqatli mehnati va yetim bolalarga ko'rsatgan g'amxo'rliklar borasida yanada to'liqroq tasavvurga ega bo'lishlarga yordam bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shu jumladan, 2 ta xalqaro hamda, 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprotatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ish chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, (3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 145 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligiga asoslanib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti hamda predmeti aniqlangan. Shuningdek, tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi bayon qilinib, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko'rsatib o'tilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan hamda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ko'rsatib berilgan. Bundan tashqari, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprotatsiyasi, natijalari, e'lon qilingan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**O'zbekistonda bolalar uylarining shakllanishi va ularning miqdori**" deb nomlangan birinchi bobning *birinchi paragrafida* 1920-1930-yillarda O'zbekistonda bolalar uylarining shakllanishi va ularni tashkil etish tartibi tahlil qilingan. 1917-yilgacha O'zbekiston hududida birorta ham davlat tasarrufidagi bolalar uyi bo'lmagan. Bungacha yetim bolalar vaqf mulkiga kiruvchi hujralar, madrasalar va masjidlar ixtiyorida bo'lib, ular ushbu mulklar tasarrufidagi mablag'lar hisobiga ta'minlangan.

1917-yilgi inqilobdan so'ng sovet hokimiyati tomonidan bolalar uylari tarbiya muassasalarining yangi bir ko'rinishi sifatida tashkil etila boshlagan. 1918-yilda Turkiston Xalq komissarlari sovetining dekreti bilan yetimxonalar asosida bolalar uylari tashkil qilingan. Keyinchalik boylardan tortib olingan yirik imoratlar va bog'lar

bolalar uylari tasarrufiga o'tkazilgan<sup>6</sup>. Tashkil qilingan bolalar uylari ota-onasiz yoki qarovsiz qolgan bolalar uchun davlat tomonidan ochilgan tarbiya muassasasi bo'lib, ular asosan ikki xil edi:

- 1) Maktabgacha tarbiya yoshidagi (3-7 yoshli) bolalar uylari;
- 2) Maktab yoshidagi (7-18 yoshli) bolalar uylari.

O'zbekiston hududida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat yillarida boshpanasiz va qarovsiz bolalar soni ortib ketgan. Natijada 1919-yilda Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik respublikasida 29 ta bolalar uylari tashkil qilingan bo'lib, ularda bir yarim mingdan ortiq yetim bolalar tarbiyalangan<sup>7</sup>. 1921-yilda bolalar uylari tarmog'i yanada ko'paygan. Bunga O'rta Osiyoga Volgabo'yidan ocharchilik natijasida ko'plab ota-onasiz yetim qolgan, boshpanasiz, och va qarovsiz bolalarning katta oqimi kirib kelganligi sabab bo'lgan. Natijada 1923-yilda Turkistondagi bolalar uylari soni 38 taga yetgan bo'lib, ulardagi yetim bolalar soni 6 mingdan ortiq edi<sup>8</sup>. 1919 va 1923-yillarni solishtirganda bolalar uylari soni va ularda tarbiyalangan yetim bolalar miqdori oshganligini ko'rishimiz mumkin.

1924-yilda O'rta Osiyo respublikalarida milliy hududiy chegaralinish o'tkazilgandan so'ng bolalar uyi tarmog'i bir nechtaga bo'linib, turlarga ajratilgan. O'zbekiston SSR Maorif Xalq Komissarligi bolalar uylarini tarmog'ini maktabgacha, maktab, maxsus va katta yoshli bolalar uchun muassasalar kabi toifalarga ajratish haqida qaror chiqaradi<sup>9</sup>.

Umuman olganda, mazkur davrda O'zbekiston hududidiga boshqa hududlardan yetim va qarovsiz bolalarning olib kelinishi, mintaqadagi harbiy harakatlar hamda iqtisodiy muammolar yetim bolalar sonining oshishiga olib kelgan. Buning oqibatida ko'plab bolalar uylari tashkil qilina boshlaydi. Masalan, 1925-yil Farg'ona vodiysida jami 30 ta bolalar uyi mavjud bo'lgan. Ulardan 21 tasi shaharlarda joylashgan bo'lsa, 9 tasi uezdlarda edi<sup>10</sup>. Mazkur yillarda Samarqand kabi O'zbekiston SSRning boshqa yirik shaharlarida ham bir qancha bolalar uylari faoliyat yuritgan<sup>11</sup>.

1930-yillardagi bolalar boshpanasizligi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar natijasi hisoblangan. Bular qatoriga kollektivlashtirish, siyosiy qatag'onlar hamda 1932-1933-yillarda ocharchilik kabilarni kiritish mumkin. Faqatgina xalqning turmush sharoiti yaxshilanib borishi ortidan, 1935-yildan boshlab bolalar uylari soni va ulardagi tarbiyalanuvchilar kontingenti yil sayin kamayib borgan.

1935-yil 31-mayda SSSR Xalq Komissarlari soveti va Butunittifoq kommunistik partiyasining "Bolalar boshpanasizligi va qarovsizligini oldini olish (tugatish) to'g'risida"

---

6 Узбекская советская энциклопедия. 2-том. Главная редакция Узбекской советской энциклопедии. – Ташкент, 1972. – С. 330.

7 O'z MA, P.94-jamg'arma, 5-ro'uxat, 6247- yig'majild, 95-varaq.

8 Расулов А.Н. Туркестон халқи бағрикенглиги (XX аср 20-йиллари бошларида Россиядан эвакуация қилинган болалар мисолида). – Тошкент: Янги нашр, 2011. – Б. 17.

9 Расулов А.Н. Туркестон халқи бағрикенглиги (XX аср 20-йиллари бошларида Россиядан эвакуация қилинган болалар мисолида). – Тошкент: Янги нашр, 2011. – Б. 17.

10 O'z MA. P.34-jamg'arma, 1-ro'uxat, 123-yig'majild, 14-varaq.

11 O'z MA P.94-jamg'arma, 1-ro'uxat, 127- yig'majild, 31-varaq.

32-sonli qarori qabul qilinadi. Qarorga ko‘ra bolalar uylarining quyidagi turlarini tashkil etish nazarda tutilgan: yashash joylaridan mahrum bo‘lgan bolalar uchun oddiy turdagi bolalar uylari; ota-onalarning mablag‘lari hisobidan ta‘minlangan bolalar uylari; tarbiyasi og‘ir bolalarga mo‘ljallangan bolalar uylari; uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun maxsus bolalar uylari; nogiron bolalar uchun maxsus bolalar uylari; mehnat koloniyalari. Bundan tashqari, SSSR Xalq Komissarlari soveti qatag‘on siyosati natijasida yuzaga kelgan ahvol, minglab ariza va murojaatlardan so‘ng 1938-yil 20-mayda “Qatag‘on qilingan ota-onalar farzandlarini bolalar uylarida kamsitilishini bartaraf etish to‘g‘risida”gi 00309-sonli maxfiy buyrug‘ini qabul qilgan<sup>12</sup>.

Mazkur bobning *ikkinchi paragrafida* Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistondagi bolalar uylarining ahvoli tahlil qilingan. Ikkinchi jahon urushiga qadar O‘zbekiston SSRda bolalar uylaridagi yetim bolalar soni yil sayin kamayib borgan bo‘lsa, urush boshlangandan so‘ng respublikadagi bolalar uylarida tarbiyalanuvchilar soni keskin oshib ketgan<sup>13</sup>.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonda voyaga yetmaganlarni qabul qilish va ularni bolalar uyiga joylashtirish markazi tashkil qilingan. Bunday markazlar Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona, Urganch, Namangan. Andijon hamda To‘rtko‘l shaharlarida tuzilgan. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, faqat 1941-yil 25-noyabrdan 1942-yil oktabrga qadar respublikaning evakuatsiya punktlari orqali 15649 nafar bola qabul qilingan<sup>14</sup>. Evakuatsiya qilingan bolalarning asosiy qismi bolalar uylarida joylashtirilgan va ularning soni urush yillarida muttasil ortib borgan. 1944-yilda respublikada bolalar uyi miqdori 1941-yildagiga nisbatan ikki barvar o‘shib, 222 tani tashkil etgan bo‘lsa, 1945-yil oxirida 256 taga yetib, jami 313 200 nafar bola tarbiyalangan<sup>15</sup>. 1941-1945-yillarda O‘zbekiston SSRga ko‘chirib keltirilgan yetim va qarovsiz bolalarning etnik va ijtimoiy tarkibi turli xil bo‘lgan. Birgina Toshkent shahriga Ikkinchi jahon urushi yillari 30 dan ortiq millat vakillari bo‘lgan fuqarolar evakuatsiya qilingan<sup>16</sup>.

O‘zbekistonga bolalar bilan birgalikda bolalar uylari ham ko‘chirib keltirila boshlangan. 1941-1942-yillar davomida O‘zbekistonga front oldi shaharlaridan 78 ta bolalar uyi evakuatsiya qilingan. Keltirilgan bolalar uylarining 50 tasi mustaqil tarzda saqlanib qolingan. Ularning 4 tasi Samarqand viloyatiga, 9 tasi Namangan viloyatiga, 5 tasi Toshkent shahriga, 13 tasi Andijon viloyatiga, 10 tasi Farg‘ona shahriga hamda 9 tasi Buxoro viloyatiga joylashtirilgan<sup>17</sup>.

O‘zbekiston SSRda bolalar uylarini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida xayriya ishlari ham tashkil etib turilgan. Bu tadbirlarda banklar ham ishtirok etgan. Jumladan, 1942-yil boshlarida respublikaning barcha gazetalarida O‘zSSR XKS

<sup>12</sup> RFDA. 9401-jamg‘arma, 1a.-ro‘uxat, 20- yig‘majild, 199-199-varaqlar.

<sup>13</sup> Фазылходжаев К. Детей принимал Узбекистан. – Ташкент: Узбекистан, 1991. – С.10.

<sup>14</sup> Коммунистическая партия Узбекистана в годы Великой Отечественной войны. Лет опись событий. Часть V. (июнь 1941-1945 гг.). – Ташкент, 1980. – С. 59.

<sup>15</sup> Хотира китоби. Ўзбекистон Республикаси (1941-1945 йй.). – Тошкент, 1995. – Б. 41.

<sup>16</sup> TSHMDA, S. 0330-jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 1-19-yig‘majildlar, 24-28-varaqlar.

<sup>17</sup> O‘z MA, P.94-jamg‘arma, 46- ro‘uxat, 97-yig‘majild, 57-varaq.

huzuridagi Evakuatsiya qilingan va yetim bolalarni joylashtirish hamda tarbiyalash komissiyasi Davlat bankining shahar boshqarmasida 160676 raqamli joriy hisob ochganligi haqidagi e'lon bosilib chiqqan. Mazkur davlat aholi tomonidan javobsiz qoldirilmagan. 1942-yilning mart oyiga kelib mazkur hisobga 2 074 000 rubl mablag' tushgan. 1943-yilga kelib bu jamg'arma fondi 3,5 mln. rublga etgan<sup>18</sup>. Bunday yordamlar nafaqat markazlashgan holda, balki hududlar kesimida ham yuz bergan. Masalan, Samarqand viloyati respublika hududidagi ko'chirib keltirilgan bolalar uyiga 1943-yilda 700 kg don, 500 kg sabzavot, 450 kg kartoshka, 250 kg ho'l meva va 2083 so'm miqdorida pul hamda Buxoro viloyati 15 bosh qoramol, 204 ta qo'y, 2 tonnaga yaqin bug'doy va boshqa mahsulotlar yetkazib bergan<sup>19</sup>. Bunday moddiy yordamlar har bir viloyat kesimida bo'lib o'tgan.

Bundan tashqari, bolalar uylari shahar joylarida zavod-fabrikalarga, qishloq joylarida esa kolxoz va sovxozlarga otaliqqa berilgan va ular o'zlari otaliqqa olgan bolalar uylarini issiq kiyim-kechak, oziq-ovqat mahsulotlari hamda kerakli mebel jihozlar bilan ta'minlashga harakat qilgan. Lekin shunda ham urush qiyinchiliklari sababli berilgan yordam yetarli miqdorda bo'lmagan.

Mazkur bobning *uchinchi paragrafida* 1946-1991-yillarda O'zbekistonda bolalar uylari miqdori, ulardagi bolalar soni hamda qabul qilish jarayonlari ochib berilgan. Boshpanasiz bolalarning navbatdagi "to'lqini" 1940-yillar oxiriga to'g'ri kelgan. O'sha paytda bolalarning uysiz qolishining asosiy sababi Ikkinchi jahon urushi natijasida ota-onalarning o'limi, bolalar muassasalarining vayron bo'lishi yoki evakuatsiya qilinishi, qatag'onlar, 1946-yilgi ocharchilik va og'ir moliyaviy ahvol bo'lgan.

1951-yil 27-yanvarda O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining "Bolalar boshpanasizligi va qarovsizligini bartaraf etish to'g'risida"gi 13-sonli qarori qabul qilingan. Mazkur qaror natijasida respublikaning turli hududlarida qarovsiz va boshpanasiz bolalarni bolalar uylariga joylashtirish choralari kuchaytirishga e'tibor qaratilgan<sup>20</sup>. O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1963-yil 31-iyundagi "Bolalar uylari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" 424-sonli qaroriga asosan respublikadagi bolalar uylarining faoliyatida bir qator o'zgarishlar amalga oshirilgan. Jumladan, 1959-yildan 1965-yilgacha respublikadagi mavjud bolalar uylarining soni 83 tadan 63 taga qisqartirilgan<sup>21</sup>. Bu qisqartirish asosan bolalar uylarini bir-biriga qo'shish hisobiga amalga oshirilgan.

1965-yil 10-sentabr holatiga ko'ra, Respublikada 63 ta bolalar uylari bo'lib, ulardan 44 tasi maktab yoshidagi, 14 tasi bog'cha yoshidagi, 4 tasi aralash turdagi, 1 ta siyosiy emigrantlarning bolalari uchun maxsus tashkil qilingan. Samarqand shahridagi 6-sonli va Qashqadaryo viloyatidagi 3-sonli bolalar uylari sanatoriy shaklida bo'lib, ular tuberkulyoz kasalligi bilan ro'yxatda turuvchi tarbiyalanuvchilar uchun bo'lgan. Bolalar uylarining 48 tasi shaharlarda va 18 tasi qishloqlarda joylashgan.

<sup>18</sup> Правда Востока, 1995. № 27.

<sup>19</sup> Хотира. Самарқанд вилояти. 1-китоб. – Тошкент, 1994. – Б. 10.

<sup>20</sup> O'z MA, R.94-jamg'arma, 7-ro'yxat, 214-yig'majild, 77-varaq.

<sup>21</sup> O'z MA, R.94-jamg'arma, 8-ro'yxat, 98-yig'majild, 1-varaq.

Bolalar uylaridagi tarbiyalanuvchilarning umumiy soni 7427 nafarni tashkil etib, ulardan 1690 nafari ota-onasiz chin yetim hisoblangan<sup>22</sup>.

1967-1968 o'quv yilida respublikada 48 ta bolalar uyi faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ularda 6759 nafar yetim bolalar tarbiyalangan. 48 ta bolalar uyidan yettitasida barcha zarur sharoitlar yaratilgan bo'lib, o'quv ishlari, tarbiyaviy ishlar, sanitar-gigienik holat, moddiy va maishiy sharoitlar yaxshi holatda bo'lgan<sup>23</sup>. O'zbekiston SSRdagi jami bolalar uylarining 28 tasi shaharlarda hamda 13 tasi qishloq hududlarida joylashgan bo'lgan<sup>24</sup>.

1974-yilga kelib ularning soni O'zbekiston SSRda 41 taga tushgan bo'lib, ulardan 39 tasi umumiy tartibdagi va 2 tasi sanatoriy shaklida bo'lgan. Respublika bo'yicha bolalar uylaridagi o'rinlar soni 7142 ta bo'lgan bo'lib, undan 6847 ta joy umumiy tartibdagi hamda 295 joy esa sanatoriy shaklidagi muassasalarda bo'lgan<sup>25</sup>.

1980-yillarga kelib yangi bolalar uylari tashkil etilgan. Xususan, O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasi va O'zbekiston Ministrlar Sovetining 1985-yil 4 martdagi 128-sonli qaroriga asosan 1990-yilga qadar Qoraqalpog'iston ASSR va Toshkent shahrida 11 ta bolalar uyi binosini qurib, foydalanishga topshirilgan<sup>26</sup>.

**“Bolalar uylarida o'quv tarbiya ishlari, sanitariya hamda kadrlar masalasi”** nomli ikkinchi bobning *birinchi paragrafida* sovet davrida bolalar muassasalarida ta'lim va tarbiya berish holati tadqiq qilingan. O'zbekiston SSRda 1930-yillardan boshlab bolalar uylari tarbiyalanuvchilarining o'quv va tarbiya ishlariga e'tibor qaratila boshlangan. 1930-1991-yillarda bolalar uylarining tarbiyalanuvchilari tarbiyasi bilan muassasaning o'zi shug'ullangan bo'lsa, o'quv ishlari bilan yon-atrofdagi maktablar shug'ullangan.

O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining qarorlariga ko'ra, 1940-1950-yillarda 7-sinfni tamomlagan va 16 yoshga to'lgan tarbiyalanuvchilarga faqat mehnat uchun emas, ularning to'liq ta'lim olishlariga imkoniyat yaratib berish zarur bo'lgan. Shuningdek, bu qaror barcha viloyat va shaharlardagi ijroqo'm tashkilotlari zimmasiga bolalar uylari ishlarini to'g'ri tashkil qilish hamda ularning sharoitini yanada yaxshilash vazifalarini yuklagan<sup>27</sup>.

1970-yillarda O'zbekiston SSRdagi barcha bolalar uylarida tarbiyalanuvchilar asosan sakkiz yillik o'rta ta'lim olishgan va shundan keyin ular maxsus kasb-hunar texnika bilim yurti yoki texnikumlarga yuborilgan. 1983-1984 o'quv yillarida bolalar uylarida o'quv va tarbiya ishlarini tashkil etish tekshiruvlar natijasida biroz yaxshilangan. O'quv yili yakuniga ko'ra maktabga boruvchi tavrbiyalanuvchilarning o'zlashtirish ko'rsatgichi 92,34 foizni tashkil etgan.

1987-yil 26-iyunda KPSS Markaziy Qo'mitasi va SSSR Ministrlar Sovetining “Ota-ona qaramog'isiz qolgan Yetim bolalarni moddiy ta'minoti va o'quv-tarbiya

<sup>22</sup> O'z MA, R.94-jamg'arma, 8-ro'yxat, 98-yig'majild, 13-varaq.

<sup>23</sup> O'z MA, R.94-jamg'arma, 8-ro'yxat, 98-yig'majild, 1-varaq.

<sup>24</sup> O'z MA, R.94-jamg'arma, 7-ro'yxat, 3084-yig'majild, 3a-varaq.

<sup>25</sup> O'z MA, R.94-jamg'arma, 7-ro'yxat, 3084-yig'majild, 3-varaq.

<sup>26</sup> O'z MA, R. 837-jamg'arma, 41-ro'yxat, 7004-yig'majild, 11-varaq.

<sup>27</sup> O'z MA, R.94-jamg'arma, 5-ro'yxat, 6247-yig'majild, 97-varaq.

ishlarini tubdan yaxshilash to'g'risida"gi 300-sonli qarori qabul qilingan<sup>28</sup>. Unga ko'ra, o'quv-tarbiya ishlarining samaradorligini oshirish uchun 1987-yilning 1-sentabridan boshlab 1-8-sinflardagi tarbiyalanuvchilar sonini o'quv darslarida 25 nafardan, hamda 9-11-sinflardagi tarbiyalanuvchilarni 20 nafardan oshirmaslik belgilangan<sup>29</sup>.

Bolalar uyidagi tarbiyalanuvchilarning asosiy qismi shahar maktablarida o'qigan. Darslarni tayyorlash bolalar uyida tarbiyachilarning nazorati ostida olib borilgan, lekin bu yetarli darajada bo'lmagan. Bolalar ishchi xonalarda dars tayyorlaganlar. Bolalar uyi o'z tarbiyalanuvchilarini darsliklar va o'quv qurollari bilan ta'minlagan. Tarbiyachilar bolalarni maktabga kuzatib borganlar, navbatchilik qilishgan va mashg'ulotlarda ular bilan birga o'tirgan.

Boshqa tomondan, tarbiyalanuvchilarning barchasi ham maktablarga bormagan<sup>30</sup>. Bolalar uyi tarbiyalanuvchilari o'rtasidagi fanlarni o'zlashtira olmaslik holatining eng yomon ko'rsatgichlari Toshkent shahridagi 7, 9, 11, 12-sonli, Farg'onadagi 6 va 7-sonli, Surxondaryodagi 3, 10 va 14-sonli, Samarqanddagi 14, 25 va 34-sonli hamda Qashqadaryo viloyatidagi 2, 3, 5 va 6-sonli bolalar muassasalarida kuzatilgan. Ayrim bolalar uylarida tarbiyalanuvchilarning o'zlari bunga sababchi bo'lgan bo'lsa, boshqalarida muassasa rahbarlarning o'zi ta'lim va tarbiya ishlariga e'tiborsiz munosabatda bo'lgan<sup>31</sup>. Yuqorida sanab o'tilgan bolalar uylarining barchasida o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etishda maktablar bilan hamkorlikda ishlash rejalarining yo'qligi hamda ko'plab bolalar uylari direktorlarining o'quv-tarbiya ishlarini yaxshi tushunmasdan, faqat muassasaning xo'jalik boshqaruviga ko'proq e'tibor qaratishi ortidan o'quv-tarbiya ishlari borasida jiddiy muammolar yuzaga kelgan.

Sovet davrida bolalar tarbiyasida turli targ'ibot tadbirlari muhim o'rin tutadi, deb hisoblangan. Masalan, Andijon shahridagi 1-sonli bolalar uyi klubga ega bo'lgan. Unda to'garaklar tashkil etilib, 177 tarbiyalanuvchilardan 60 nafari ushbu to'garaklarga jalb qilingan<sup>32</sup>. Bolalar uyida madaniy tadbirlar faqat bayramlarda uyushtirilgan. Madaniy tadbirlarni o'tkazish elektr yorug'ligi yo'qligi, ba'zida lampalar yetishmasligi sababli qoldirilishiga yoki oxirigacha yetkazilmaslikka sabab bo'lgan<sup>33</sup>. O'sha paytlarda urf bo'la boshlagan kino esa oyda bir marta qo'yilgan.

Mazkur bobning *ikkinchi paragrafida* sovet davrida bolalar uyi tarbiyalanuvchilarining salomatligi va sanitariya-gigiyena masalalari tadqiq etilgan. 1925-1991-yillarda O'zbekiston SSRda bolalar uylarining sanitar-gigiyenik holati hamda bolalar salomatligi mazkur muassasalarning moddiy ta'minoti va kadrlar salohiyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Bu shuni anglatadiki, yillar davomida bolalar uylaridagi sanitariya-gigiyena va bolalar salomatligi darajasi turlicha bo'lgan.

---

<sup>28</sup> O'z MA, R. 837-jamg'arma, 41-ro'yxat, 7222-yig'majild, 31-varaq.

<sup>29</sup> O'z MA, R. 837-jamg'arma, 41-ro'yxat, 7222-yig'majild, 32-varaq.

<sup>30</sup> O'z MA, R.94-jamg'arma, 5-ro'yxat, 3129-yig'majild, 77-varaq.

<sup>31</sup> O'z MA, R.94-jamg'arma, 5-ro'yxat, 6247-yig'majild, 1-varaq.

<sup>32</sup> O'z MA, R.94-jamg'arma, 5-ro'yxat, 3129-yig'majild, 13-varaq.

<sup>33</sup> O'sha joyda.

1920-yillarda bolalar uylari dastlab tashkil topgan vaqtlarda salomatlik va sanitariya-gigiyena masalasi e'tiborsiz qoldirilgan. Respublikadagi bolalar uylarida tibbiy xizmat ko'rsatish ishlari qoniqarli emas edi. Bir qator bolalar uylarida umuman ularga birlashtirilgan vrachlar yo'q bo'lgan. Faqatgina o'rindoshlik asosida ishlaydigan tibbiyot hamshirasi va feldsher bo'lgan bo'lib, ular tarbiyalanuvchilarning sog'lig'i va zarur tibbiy ko'riklarini ta'minlab bera olmagan. 1930-yillardan boshlab bolalar uylaridagi yomon sanitar holat bolalar sog'liqlariga va sanitar-gigiyenik holatiga ta'sir o'tkaza boshlagan. Xususan, bolalar orasida o'pka tuberkulezi, suyak va teri, yurak kasalliklari va boshqa xastaliklar ko'plab uchragan<sup>34</sup>. Shuningdek, yetarli darajada ovqatlanmaganligi sababli bolalar kamqon va ozg'in bo'lgan<sup>35</sup>.

1940-yillarda bolalar uylarida tibbiy xizmat ko'rsatishning qoniqarsizligi hamda sanitariya-gigiyena talablariga rioya etilmasligi saqlanib qolingan<sup>36</sup>. Faqatgina 1950-yillardan boshlab O'zbekiston SSRdagi ayrim bolalar uylarida bolalar salomatligi va sanitariya-gigiyena masalasida ijobiy o'zgarishlar kuzatila boshlangan<sup>37</sup>. Xususan, Toshkent shahri va Farg'ona viloyati misolida buni ko'rish mumkin edi<sup>38</sup>. Biroq, barcha hududlarda bunday ijobiy holat kuzatilmagan. Toshkent shahri va Farg'ona viloyatidan farqli ravishda Qashqadaryo viloyatida bu masalaga salbiy qaralgan. Jumladan, 1956-yil "Qashqadaryo haqiqati" gazetasida Qarshi shahridagi bolalar uylarining ahvoli haqida achinish bilan ma'lumot berilgan<sup>39</sup>.

1960-yillardan boshlab O'zbekiston SSRda bolalar uylarning sanitar-gigiyenik holatini tekshirish kuchaygan. Shuningdek, viloyat sog'liqni saqlash boshqarmalari barcha bolalar uylari tarbiyalanuvchilarini bir yilda ikki marta tibbiy ko'rikdan o'tkazgan<sup>40</sup>. Arxiv manbalaridagi bolalar uylari tarbiyalanuvchilarining kasallanish holatlari to'g'risidagi statistik ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, 1970-yillarda avvalgi davrlarga qaraganda ko'proq bolalar kasallanganligini kuzatish mumkin. Bu holat mazkur davrda bolalar avvalgi davrga qaraganda ko'proq kasalliklarga duchor bo'lganligidan emas, balki 1970-yillarda bolalar kasalligini aniqlashga qaratilgan choralar yaxshiroq olib borilganligi bilan bog'liqdir. Bu bir tomondan ko'pgina bolalar uylarida tibbiyot xodimlari doimiy ravishda mehnat qilganligini bildiradi.

1988-yil 1-sentabrda barcha bolalar uylari tarbiyalanuvchilarini tibbiy ko'rikdan o'tkazish va muassasalarda tibbiy xizmat sifatini yaxshilash belgilangan. Shuningdek, tarbiyalanuvchisi 200 nafargacha bo'lgan bolalar uylarida tungi vaqtda navbatchilik qilish uchun bitta tibbiyot hamshirasi va 0,5 stavkada vrach-stomatolog bo'lishi,

---

<sup>34</sup> O'z MA, R.94-jamg'arma, 1-ro'yxat, 86-yig'majild, 10-varaq.

<sup>35</sup> O'z MA, R.94-jamg'arma, 5-ro'yxat, 3129-yig'majild, 11-varaq.

<sup>36</sup> BuxDMA, 1316-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1-yig'majild, 127-varaq.

<sup>37</sup> FarVDA, 826-jamg'arma, 2-ro'yxat, 34-yig'majild, 24-varaq.

<sup>38</sup> O'z MA, R.94-jamg'arma, 5-ro'yxat, 6884-yig'majild, 10-varaq; ФарВДА, 1104-jamg'arma, 3-ro'yxat, 217-yig'majild, 19-varaq.

<sup>39</sup> Кашкадарьинская правда, 1956. № 25.

<sup>40</sup> ToshVDA, 530-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1487-yig'majild, 21-varaq.

tarbiyalanuvchilar soni 200 nafardan ortiq bolalar uylarida esa, bir shtat birlikda hamshira va vrach bo'lishi belgilab qo'yilgan<sup>41</sup>.

Mazkur bobning *uchinchi paragrafida* 1930-1991-yillarda O'zbekistondagi bolalar uylarida kadrlar muammosi tahlil qilingan. Sovet davrida bolalar uylarida eng muammoli vaziyatlardan biri bu kadrlar yetishmasligi bo'lgan. Bu bir tomondan kadrlar soni bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan malakali va fidoyi xodimlarning yetishmasligi bo'lgan. Xususan, bolalar uylarida oliy ma'lumotli ishchi-xodimlar soni kamroq bo'lgan.

1930-yillarda O'zbekiston SSRdagi bolalar uylarida yuqori malakali pedagog-xodimlar yetishmovchiligi kuzatilgan. Masalan, 1937-yilda Andijon shahridagi 1-bolalar uyidagi tarbiyachi xodimlar haqida so'z ketganda mavjud bolalar uyi tarbiyachilaridan bir nafari pedagogik ma'lumotga ega bo'lgan bo'lib, 2 nafar xodim shahar xalq ta'limi boshqarmasi qoshidagi 2 oylik bolalar bog'chasi ishchilari kursini bitirgan hamda qolgan 6 nafar tarbiyachilar bo'lsa hech qanday ma'lumotga va ish stajiga ega bo'lmagan<sup>42</sup>. Bu esa o'z navbatida ta'lim-tarbiya jarayonida oqsashlarga va qator kamchiliklarga yo'l qo'yilishiga olib kelgan. Shuningdek, mazkur davrda qatag'on siyosati avjiga chiqqan bo'lib, bu holat bolalar uylarida xizmat qilgan ishchi-xodimlarni ham chetlab o'tmagan<sup>43</sup>.

Faqatgina Ikkinchi Jahon urushidan keyin O'zbekiston SSRda bolalar uylarida xizmat qiluvchi xodimlarning bilimini va malakasini oshirishga harakat qilindi. Boshqa tomondan, ushbu harakatlar bolalarga sifatli ta'lim berish yoki pedagoglarning o'z sohasi bo'yicha ma'lumotlarini oshirish uchun emas, balki sovet hokimiyati g'oyalari ishchi-xodimlar o'rtasida yoyish uchun amalga oshirilgan. Bu o'z navbatida bolalar uylarida tarbiya olayotgan bolalarni sovet g'oyalari ostida tarbiyalashga qaratilgan edi.

1940-yillarda O'zbekiston SSRdagi pedagogika institutlarida tizimli ravishda bolalar uylari direktorlari, bosh tarbiyachilar, tarbiyachilar va pioner tashkiloti yetakchilari uchun o'quv kurslari tashkil qilinib, ularning malakasi oshirib borilgan<sup>44</sup>. Boshqa tomondan, bu davrda bolalar uylarida mehnat qiluvchi xodimlarning qo'nimsizligi tez-tez uchrab turgan. Ayrim holatlarda bu jarayon bolalar uylarining rahbariyati qarorlari asosida yuz bergan bo'lsa, boshqa holatlarda xodimlarning o'zlari bu sohani moddiy va ma'naviy qiyinchiliklar uchun tashlab ketgan<sup>45</sup>.

1950-yillarga kelib O'zbekiston SSRdagi bolalar uylarida mehnat qiluvchi ishchi-xodimlar soni ro'yxatga olinib boshlagan. Bu esa kadrlar soni bo'yicha statistikani ochiqlashga yordam beradi. Xususan, arxiv manbalariga ko'ra, mazkur yillarda respublikadagi bolalar uylarida jami 608 nafar tarbiyachilar mehnat qilgan. Ularning ma'lumotlari turlicha bo'lgan. Bolalar uylaridagi jami tarbiyachilardan 41 nafari

<sup>41</sup> O'z MA, R.837-jamg'arma, 41-ro'yxat, 7222-yig'majild, 37-varaq.

<sup>42</sup> O'z MA, R.94-jamg'arma, 5-ro'yxat, 3129-yig'majild, 77-varaq.

<sup>43</sup> O'sha joyda.

<sup>44</sup> O'z MA, R.94-jamg'arma, 5-ro'yxat, 6247-yig'majild, 98-varaq.

<sup>45</sup> FarVDA, 826-jamg'arma, 2-ro'yxat, 34-yig'majild, 21-varaq.

oliy ma'lumotli, 98 nafari tugallanmagan oliy ma'lumotli, 268 nafari o'rta-maxsus pedagogik ma'lumotli bo'lgan bo'lsa, 168 nafarining hech qanday maxsus pedagogik ma'lumoti bo'lmagan, hamda yana ular ichidan 71 nafari tugallanmagan o'rta ma'lumotga ega bo'lgan<sup>46</sup>. 1958-1959-yillar davomida tarbiyaviy ishlarni qoniqarsiz tashkil etganligi, muassasa mulki va mablag'larini o'g'irlagani uchun bolalar uylari va maxsus maktab-internatlar direktorlarining 40 foizdan ortig'i egallab turgan lavozimidan bo'shatilgan<sup>47</sup>.

1967-1968 o'quv yilidagi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston SSRdagi mavjud bolalar uylarida 567 nafar tarbiyachilar ishlagan bo'lib, ulardan 225 nafari oliy ma'lumotli, 78 nafari tugallanmagan oliy ma'lumotli, 200 nafari o'rta maxsus, 60 nafari umumiy o'rta, 4 nafari to'liqsiz o'rta ma'lumotli bo'lgan<sup>48</sup>.

1970-yillarda O'zbekiston SSRdagi bolalar uylarida mehnat qilgan xodimlarning to'liqroq ro'yxati shakllantirilgan. Arxiv hujjatlariga ko'ra, 1974-yilda respublikadagi barcha bolalar uylarida ishlovchi rahbar, pedagog, texnik va xo'jalik xodimlar soni jami 1613 nafarni tashkil qilgan. Ularning 1553 nafari umumiy tartibdagi va 60 nafari esa sanatoriy tartibdagi bolalar uylarida faoliyat ko'rsatgan<sup>49</sup>.

Bolalar uylarida ishlovchi tarbiyachi-pedagoglarning mehnatlarini munosib rag'batlantirish va ularning ish samaradorligini oshirish maqsadida, tungi vaqtlarda muassasada navbatchilik qiluvchi ishchi-xodimlar maoshiga 1987-yilning 1 sentabridan boshlab 35 foiz ustama tarzda pul to'lash tartibi joriy qilingan<sup>50</sup>. 1980-1990-yillarda bolalar uylarining namunali bo'lishi ularda oliy ma'lumotli kadrlar ishlashi bilan emas, balki ish tajribasi yuqori bo'lgan tarbiyachilar bilan o'lchangan<sup>51</sup>.

**“Bolalar uylarining moddiy ta'minoti va mablag'larning talon-taroj etilishi”** nomli uchinchi bobning *birinchi paragrafida* o'rganilayotgan davrda bolalar muassasalarining moddiy ta'minoti masalalari tadqiq qilingan. 1920-yillarda O'zbekiston SSRda bolalar uylariga davlat tomonidan ma'lum bir tadbirlar uchun mablag' ajratilgan<sup>52</sup>. Shuningdek, mazkur yillarda bolalar uyiga mablag' ajratishda o'sha muassasa qancha sondagi bolalarni o'ziga qamrab olganligi hisobga olingan. 1927-1928-yillarda 18 ta bolalar muassasasining xarajatlari mahalliy va 5 tasi okruglar tomonidan qoplangan bo'lsa, 1928-1929-yillaridan hammasi mahalliy byudjetga o'tkazilgan<sup>53</sup>.

Bolalar uylari xarajatlari byudjet mablag'lari hisobiga qoplanishni boshlagandan so'ng ushbu muassasalar ustidan moliyaviy tekshirishlar boshlangan. Jumladan, 1930-yillardan boshlab bu jarayon O'zbekiston SSRning barcha hududlarida kengayadi. Arxiv manbalaridan ko'rish mumkinki, 1930-yillar oxirida o'tkazilgan tekshiruvlar

---

<sup>46</sup> O'z MA, R.94-jamg'arma, 5-ro'yxat, 6247-yig'majild, 2-varaq.

<sup>47</sup> O'z MA, R.94-jamg'arma, 7-ro'yxat, 1456-yig'majild, 20-varaq.

<sup>48</sup> O'z MA, R.94-jamg'arma, 8-ro'yxat, 98-yig'majild, 7-varaq.

<sup>49</sup> O'z MA, R.94-jamg'arma, 7-ro'yxat, 3084-yig'majild, 12-varaq.

